



*lexeme "para" have an internal deeper meaning, in addition to the positive/negative meaning. In order to study these meanings, the collected proverbs were divided into 6 semantic groups, namely: para (money)-power, para (money)-insignificance, para (money)-opportunity, para (money)-difficulties, para (money)-help, para (money)-greed.*

**Key words and phrases:** *Turkish Language, Proverbs, Money, Semantics*

Ma'lumki, maqollar o'tmishdan hozirgi kunga o'tib kelayotgan, ko'p yillik tajribalardan foydalangan holda qisqa va ixcham maslahatlar beradigan, jamiyat tomonidan o'zlashtirilib, keng qo'llaniladigan qoliplashgan so'zlardir. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi ijtimoiy mavzularni yoritadi. Maqollar avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini o'zida jamlaydi. Shu bilan birga, maqollarda "pul" tushunchasi ham o'z aksini topishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, turli xil sohalarda "pul" tushunchasi tadqiqot obyekti sifatida ochib beriladi. Bu jarayonda "pul" tushunchasi har bir tilning lisoniy dunyo qarashidan kelib chiqib turli xil tasvirlanadi. Qayd etish lozimki, ushbu tushuncha tilshunoslar tarafidan ham farqli manbalar vositasida tahlilga tortilgan. Masalan, rus lingvisti D.Y.Sitnikova<sup>82</sup> o'z ilmiy maqolasida nemis va rus tili madaniyatlarida "pul" tushunchasining timsol va qiymat komponentini ko'rib chiqadi. Bu vazifani bajarish uchun ikki til doirasida leksikografik manbalaridan 200 ta frazeologik birlik tanlanib tahlil qilinadi. Shuningdek, nemis va rus tilida ona tili sifatida so'zlovchilarning ongida "pul" tushunchasi bilan bog'liq qiymat komponentini aks ettiruvchi assotsiativ so'rovnomalar ma'lumotlari ham keltirib o'tiladi. Muallif tadqiqoti natijasida rus lisoniy madaniyatida "pul" tushunchasining mohiyatiga qaraganda pul va inson orasidagi munosabat tasvirlanishini, nemis lisoniy madaniyatida esa "pul" tushunchasining mustaqil yopiq tizim sifatida qabul qilinishini qayd etadi. Rus kundalik ongida "pul daraxtda o'smaydi", uni topish qiyin va "sarflash" oson, ammo u har doim ham hal qiluvchi o'rinni egallamaydi. Nemislar uchun pul hayotiy manbadir biroq u haqida gapirish odatiy hol emas, chunki unga shaxsiy tushuncha sifatida qaraladi.<sup>83</sup>

Boshqa bir rus tilshunosi E.A.Osheva<sup>84</sup> ilmiy ishida Angliya va Amerika ingliz tillaridagi maqollarda "pul" tushunchasi tahlil qilar ekan, ushbu tushunchaning madaniy o'ziga xos komponentlarini aniqlashga harakat qiladi. Olima V.Mider lug'atidan tanlab olingan maqollarni 9 semantik guruh: pul – qadr-qiymat, pul-dushman, pul-yo'qchilik, pul-qadrsizlik, pul-motivatsiya, pul-dolzarblik, pul-asosiy emas, pul-mehnat kabilarga ajratadi. Shu bilan birga, maqolada Angliya ingliz lisoniy madaniyati va Amerika ingliz lisoniy madaniyatidagi o'xshash va farqli jihatlarini ochib

<sup>82</sup> Qarang: Ситникова Д.Ю. Заглядкина Т.Я.Образная и ценностная составляющие концепта «деньги» в немецкой и русской лингвокультурах // Terra Linguae. - 2017. - Вып. 3. - С. 94-97.

<sup>83</sup> O'sha asar. B.96.

<sup>84</sup> Qarang: Ошева Е.А. Концепт "Деньги" в англо-американский пословицах и поговорках // Terra Linguae. - 2013.- Вып.3.-С. 390-392.



beriladi. Masalan, Amerika ijtimoiy dunyoqarashiga ko'ra inson kichik yoshdan boshlab pul bilan tanishtiriladi, Angliya madaniyatida esa pul mavzusi taqiqlanadi.<sup>85</sup>

Slavyan assotsiativ lug'atidan olingan leksikografik ma'lumotlar asosida rus, belarus va ukrain lisoniy dunyoqarashida "pul" tushunchasini ko'rib chiqqan tilshunos T.V.Grigoryeva<sup>86</sup> o'z maqolasida ushbu tushunchaning assotsiativ sohasini lingvokognitiv tahlil qiladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi tarixan qardosh Sharqiy slavyan xalqlari ruslar, belaruslar va ukrainlarning nutqi va aqliy faoliyatidagi umumiylik va farqlarni aniqlashdan iboratdir. Muallif bu maqsadga erishish uchun uch qardosh xalq ongida "pul" tushunchasining assotsiativ birliklari takrorlanish nisbatini hamda ushbu tushuncha tuzulishining maydon modelini aniqlash lozimligini ta'kidlaydi.<sup>87</sup>

Qayd etish lozimki, "pul" tushunchasi turk tilshunosligida ham tahlilga tortilgan bo'lib, bu mavzuda qilingan ishlarning asosiy qismi "pul" tushunchasining turli leksemalar bilan ifodalanishi va ularning semantik tadqiqiga bag'ishlangan. Masalan, turk tilshunosi E.Shahin turk va tatar tillaridagi frazeologik birliklarda "pul" tushunchasining ma'noviy guruhlarini taqqoslab ko'rib chiqadi.<sup>88</sup> Muallif turk va tatar tilidagi frazeologik birliklar lug'atlaridan 147 ta birlik ustida ish olib boradi. Xususan, turk tili lug'atida "para" ("pul") leksemasi ishtirok etgan 72 ta frazeologik birlik 10 ta semantik guruh: "düşüncasız davranma", "değersiz", "kazanç elde etmek", "haksız kazanç sağlamak", "maddiyatçı", "maddiyatçı olmak", "rüşvetçilik", "savurgan olmak", "zengin", "zengin olmak" kabilarga ajratilgan bo'lib, ularning asosiy qismida iqtisodiy hayotga oid bo'lgan tushunchalarni yoritib beriladi. Shu bilan birga, muallif ilmiy ishida "para" ("pul") leksemasi frazeologik birlik yasalishida boshqa so'zlar bilan turli shakllarda birlashishi orqali xilma-xil tushunchalarni ifodalashda xizmat qilishini qayd etadi.<sup>89</sup>

Shuningdek, E.Shahin valyuta birliklari ishtirok etgan frazeologizmlar tadqiqiga bag'ishlangan maqolasida Muallif "akçe" ("aqcha"), "kurush" ("tiyin"), "mangır" ("mis tanga"), "metelik" ("sariq chaqa") kabi pul birliklari bilan bir qatorda "para" ("pul") / "paralık" ("mayda") leksemalari qatnashgan 27 ta frazeologik birlikni tahlil qilgan ekan, odatda bu leksemalar bir, iki, beş, on, kırk, altmış sonlari bilan birga ishlatilganda pul birligi ma'nosini ifodalashiga qarab semantik guruhlariga ajratadi.<sup>90</sup>

Yuqorida qayd etilgan ishlardan ko'rinib turibdiki, "pul" tushunchasi Yevropa va rus olimlari tafadidan konsept tarzida tahlil qilinarkan ekan, turk olimlari esa uni leksema sifatida tadqiq qiladi. Ushbu ilmiy maqolada turk maqollari tarkibida uchragan "para"

<sup>85</sup> O'sha asar. B.391.

<sup>86</sup> Qarang: Григорьева Т. В. Концепт "Деньги" в национальном языковом сознании восточных славян. // Conference Paper. -2022.-Вып.4.-С.151-155

<sup>87</sup> O'sha asar. B.154

<sup>88</sup> Qarang: Şahin E. Türkiye Türkçesi İle Tatar Türkçesinde Parayla İlgili Deyimler Ve Bunların Anlam Bilimsel Karşılaştırılması // Türk dünyası araştırmaları. - 2013. Sayı.207.- S. 261-280

<sup>89</sup> O'sha asar. B.266-267

<sup>90</sup> O'sha asar. B. 956-958





(“pul”) leksema sifatida talqin qilinib, birlamchi va ikkilamchi semantik guruhlariga ajratiladi.

Tadqiqot ishining obyeksi “para” leksemasi ishtirok etgan turk maqollari bo‘lib, ushbu maqollarning semantik xususiyatlari tadqiqot ishining predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqot ishining maqsadi “para” (“pul”) leksemasi ishtirok etgan turk maqollarini semantik tahlil qilish bo‘lib, buning quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- “para” (“pul”) leksemasi ishtirok etgan turk maqollarini jamlash;
- “para” (“pul”) leksemasi ishtirok etgan turk maqollarini birlamchi (ijobiy / salbiy) ma’noviy guruhlantirish;
- “para” (“pul”) leksemasi ishtirok etgan turk maqollarini semantik xususiyatlariga ko‘ra ma’noviy guruhlariga ajratish (ikkilamchi guruhlantirish).

Tadqiqot ishining manbasi sifatida O‘.A.Aksoyning “Turk maqollari lug‘ati” dan<sup>91</sup> “para” (“pul”) leksemasi ishtirok etgan, ketma-ket tanlash usuli bilan yig‘ilgan 20 ta maqol tahlilga tortiladi.

Avvalo, ushbu maqollar birlamchi xususiyatlariga ko‘ra ikki ma’noviy guruhlariga ajratildi. Bunda maqollarda aks etgan yaqqol tushuncha asosida ijobiy va salbiy ma’no guruhlari shakllantirildi.

Ijobiy ma’noda kelgan maqollarga misol sifatida *Beş para giren ev yıkılmamış (so‘zma-so‘z) Besh pul kirgan uy yiqilmasmish*) maqolini keltirish mumkin. Bu maqolda inson oilasida tinchlik xotirjamlikda yashashi qora qozoni qaynab turishi uchun topish darajasi oz bo‘lsa ham barakasini bersin deb ishlashdan to‘xtamasligi kerakligi ta’kidlanadi. Bu esa ota-bobolarimizning doimo ishlab, o‘z rizq nasibalarini topganilari va buning eng to‘g‘ri yo‘l ekanligini haqida uqtirganliklarining dalilidir.

Ushbu ma’noni aks ettirgan yana bir maqol *Gençlikte para kazan, Kocalıkta kur kazan (so‘zma-so‘z) Yoshlikta pul ishla, Qariganda rohat yasha*) maqolida esa inson barcha ishlarini yoshligida yetarli kuchi, g‘ayrati qobilyati borligida bajarishi va qariganda oilasi farzandlari bilan ham iqtisodiy ham ma’naviy jihatdan rohat yashashi, hech kimga qaram bo‘lmasdan tinch hotirjam hayot kechirishini ochib berilgan.

Shu bilan birga, salbiy ma’noda kelgan maqollar esa insonning pul (moddiy daromad) bilan orasidagi ziddiyatli munosabatlarni ochib beradi. Masalan, *Ölüme giden gelmiş paraya giden gelmemiş (so‘zma-so‘z) O‘limga ketgan kelibdi pulga ketgan qaytmabdi*) maqolida “para” (pul) insonni eng og‘ir hayotiy holat bo‘lgan o‘limdan ham ayancli vaziyatlarni boshidan o‘tkazishiga sabab bo‘la olishi haqida so‘z boradi. O‘lim aniq va qaytarib bo‘lmaydigan haqiqat ekanligini bilsakda, “para” (pul) bundan ham dahshatli ekanligini aytiladi.

Salbiy ma’noni ifodalangan yana bir maqol *Anayı kızdan ayıran para (so‘zma-so‘z) Onani qızdan ayirgan pul maqolida* esa “para” (pul) hattoki yaqin insonlar orasiga sovuqchilik tushishiga sabab bo‘lishi, tug‘ishganlarni ham ayira olishi haqida so‘z borar ekan, insonlar o‘rtasidagi muommolarni keltirib chiqaradigan omil sifatida aks ettiriladi.

<sup>91</sup> Aksoy Ö.A. Atasözler ve deyimler sözlüğü. 1.Cilt. Atasözleri sözlüğü. İnkılap Kitabevi yayınları -1984. -219 s.



Shuningdek, “para” leksemasi qatnashgan turk maqollari ijobiy / salbiy ma’no bilan ichki chuqur ma’nolarga ham egaligi qayd etildi. Mazkur ma’nolarni tadqiq qilish maqsadida tahlilga tortilgan maqollar 6 semantik gruruhga ajratildi: para (pul)-kuch, para (pul)-qadrsizlik, para (pul)-fursat, para (pul)-mashaqqat, para (pul)-yordam, para (pul)-xasislik.

1) para (pul)-kuch. Mazkur guruhga kiruvchi maqollar tarkibida qatnashgan para (pul) leksemasi kuchga egalik, atrofda qilarga ta’sir va boshqarish qobiliyatini ifodalashi aniqlandi. Ushbu guruhga kiruvchi *Gençlikte para kazan, Kocalıkta kur kazan (so’zma-so’z) Yoshlikda pul ishla, katta bo’lganda rohat yasha* maqolida qo’llanilgan “para” (pul) leksemasi orqali moddiy boylik “iqtisodiy kuch ega bo’lish” tarzida ifodalanadi. Bundan kelib chiqib, “iqtisodiy kuch ega bo’lish” uchun eng samali vaqt yoshlik chog’i ekanligi, aynan shu davrda qo’lga kiritilgan kuch insonning keksalik paytiga qadar saqlanishi qayd etiladi.

Boshqa bir maqol – *Para parayı çeker (so’zma-so’z) Pul pulni tortadi* maqolida esa keltirilgan “para” (pul) leksemasi insonni qo’lida moddiy boyligi yetarli miqdorda bo’lsa, ushbu tamal bilan yangi g’oyalar yaratishi va buning orqasidan sarmoyasini kentgaytiraolishi haqida so’z boradi. Mazkur maqolning semantik tahlilida “para” pul leksemasi, avvalo, “kuch” ma’nosni aks ettirgan holda “sarmoya, yangilik, biznes” ma’nolarini ham ifodalamoqda.

*Paranın yüzü sıcaktır (so’zma-so’z) Pulning yuzi issiq* maqolida “para” (pul) leksemasi insondan pul qarashiligida ko’plab ishlar qilishini talab qiladi va bu inson pulni ko’rgandan keyin o’zidan o’zligidan kechgan holda yaxshi yoki yomon bo’lsin hamma ishni bajarishga rozi bo’ladi. Va buning orqasidan ko’plab xatolar qiladi balki yutuqqa erishishi balki yomon yo’lga kirishi ham mumkin. Bu yerda para (pul) leksemasi pulga yengilish, itoat qilish, bo’ysinish kabi holatlarni ifodalaydi.

*Parayı veren düdüğü çalar (so’zma-so’z) Pulni bergan xushtak çalar* maqolida bir inson puli bilan nafaqat ko’p ishlar qila olishi, turli masalalarda turlicha, istagan insoniga istagan ishini qilidishi mumkindir. Takidlash joizki, para (pul) leksemasi pulning kuchi, qudrati, itoatkorlik darajasini ko’rsatadi.

*Parayı domuzun boynuna takmışlarda, domuz ağa diye çağırmışlar (so’zma-so’z) Pul cho’chqani çağırmışlar bo’yniga osib cho’chqa aka deb chaqirishibdi*). Ushbu maqolda kelgan para (pul) so’zi moddiy manfaat, boylik yoki mulkni bildirgan holda puldor shaxs bir insonni o’zi xohlagan tarzda harakat qilishi yoki biror ishga undashi mumkinligi tasvirlangan.

*Çok söz yalansız çok para haramsız olmaz (so’zma-so’z) Ko’p gap yolg’onsiz, ko’p pul haromsiz bo’lmaydi*). Quydagi maqoldagi para (pul) topishning va boy bo’lishning muhimligi takidlangan holda, daromadni yolg’on va harom yo’llar bilan emas balki o’sha boylikning asosida halollik va halol daromad bo’lishining muhimligi, noqonuniy yo’llar va yolg’on uslublar bilan daromad olish baxt va tinchlik keltirmasligi ta’kidlangan.





2) para (pul)- qadrsizlik. Shu bilan birga, “para” (pul) leksemasi pulning inson hayotidagi qadrsizligi, ko‘p hollarda inson aqlini, ongini ustun ekanligi yoritilgan maqollar ham mavjuddir. Misol tariqasida *Aql para ile satilmaz (so‘zma-so‘z) Aql pul bilan sotilmaydi*) maqolida “para” pul leksemasi insondagi moddiy boylikning ma’naviy boylik qarshisida qadrsizligini ifodalash uchun qo‘llaniladi, ya’ni aql va tafakkur qobilyatining ahamiyati moddiy qadriyatlardan ustun ekanligi, aql va donolikni pulga sotib ham, sotib olib ham bo‘lmasligi yoritilgan; xoh pul bo‘lsin, xoh moddiy boylik bo‘lsin, insonning asl qadri va ahamiyati uning aql-zakovati, donoligi o‘lchanishi kerak ekanligi aytilgan.

“Para” pul leksemasi “qadrsizlik” ma’nosini ifodalagan *Bekarın parasını it yer yakasını bit yer (so‘zma-so‘z) Bo‘ydoqni pulini it yer, yoqasini bit*) maqolida esa “bekarın parası” (bo‘ydoq puli) o‘zida “tez, keraksiz sarf-xarajat” ma’nosini ifodalaydi. Bu maqolda o‘smir, turmush qurmagan yoshlarning oilalilarga nisbatan ma’sulyatsiz va beparvolik qilishlari mumkinligini ko‘rsatadi.

“Para” pul leksemasidagi *Dağdaki kekliğin bini bir paraya (so‘zma-so‘z) Tog‘dagi kaklikning mingi bir pul*) maqolida biror narsani juda oson yoki arzonga olish mumkin ekanligini, ba’zida qiyin ko‘rinadigan yoki yuqori qiymatga ega bo‘lgan narsalar aslida qiymatsiz ekanligi ta’kidlanadi.

*Beş para giren ev yıkılmamış (so‘zma-so‘z) Besh so‘m kirgan uy yiqilmasmish*). Ushbu maqolda biznes yoki turli usullar orqali oz miqdorda “para” pul topish yoki foyda olish qurilgan loyihaning qulashi yoki oldini olishi mumkin ekanligini tasvirlagan holda hatto kichik daromad bo‘lsa ham uni davom ettirishi kerakli ekanligini yoritadi.

3) para (pul)-fursat. Shuningdek “para” (pul) leksemasi pulning inson hayotidagi o‘rnini yoritgan holda vaqtni tejashini, bir ish qiladigan bo‘lsa, fursatni qochirmasdan oladigan natijasi aniq va samarali bo‘ladigan taqdirda o‘sha narsaga erishish muhim ekanligini yoritgan holda maqollar bilan ochib berilgan. Misol tariqasida *Paranın gittiğine bakma işinin bittiğine bak (so‘zma-so‘z) Pulingni ketganiga qarama ishingni bitganiga qara*). “Para” (pul) leksemasida ko‘pincha ishning narxini hisobga olgan holda ko‘pincha bir ish qurmoqchi bo‘lgan shaxsdan harajat yoki kuch talab qilishi mumkin. Bu vaqtda inson qulay vaziyatni inobatga olgan holda ilk narxi va qiyinchiligiga emas, uning natija va fursatiga qarab ish olib borishi muhimroqdir.

*Her zaman eşek ölmez on köfte on para olmaz (so‘zma-so‘z) Har doim eshshak o‘lmaydi o‘n ko‘fta o‘n pul bo‘lmaydi*). Ushbu maqol ma’lum bir holat yoki hodisaning albatta sodir bo‘lishini va buni o‘zgartirib bo‘lmasligini, anglatgan holda biror narsaning narxi qanchalik qulay bo‘lmasin, u har doim ham arzon bo‘lmasligini ba’zan qimmatga sotib olishimizga to‘g‘ri kelishini ochib bergan holda sabr-toqat, ehtiyotkorlik va fursatni ta’riflaydi.

4) para (pul)-mashaqqat. Mazkur guruhga kiruvchi maqollar tarkibida qatnashgan para (pul) leksemasi pulning inson hayotidagi mashaqqati, qiyinchiligini yoritgan holda tasvirlanadi. Misol tariqasida *Ön para ön Arslan‘ın ağzında (so‘zma-so‘z) O‘n pul o‘n sherning og‘zida*). Mazkur maqol tanqis bo‘lgan yoki oz miqdordagi



ko'pchilik tarafidan talab qilingan buyum yoki resurslarning qiymati doimo oshishi haqida tariflar ekan, bu holatda har qanday narsani nazorat qilish qiyinlashishini va uni qo'lga kiritish uchun ko'proq kuch, mashaqqat sarflashini mumkinligini takidlaydi.

*It sürü para kazan (so'zma-so'z) It podasidan pul ishlab top* ushbu maqolda insonlar ham moddiy ham manaviy taraflama oilasini qo'llab quvvatlash uchun tirikchilik qilish uchun qiladigan ishlari axloqiy, halol hech kimga ziyon bermaydigan bo'lsa biz harom deb xisoblagan it podasini orqasidan pul topishi qiyinchilik mashaqqat keltirsa ham ayb emasligi ochiqlanadi.

*Ölüme giden gelmiş paraya giden gelmemiş (so'zma-so'z) O'limga ketgan kelibdi, pulga ketgan qaytmabdi.* O'lim inson uchun eng og'ir judolik bo'lib, insonni judayam yomon va achinarli holatga soladi. Pul esa bu holatda undan ham yomon va daxshatli ekanligi yoritilgan.

5) para (pul)-yordam Mazkur guruhga kiruvchi maqollar tarkibida qatnashgan para (pul) leksemasi saxiy va o'z pullarini boshqa insonlar bo'lishishni, ehson qilishni yoqtiradigan insonlar ma'no jihatidan ehsonsevar, yordamsevar insonlar uchun ishlatiladi. Misol tariqasida *Paran ucuz olursa sen pahalı olursun (so'zma-so'z) Puling arzon bo'lsa sen qimmat bo'lasan.* Ko'plab insonlarga yordami tegadigan ishlar qilgan, doimo yordamga, ehsonga qo'li ochiq bo'lgan, saxiyilar uchun ishlatiladi. Ushbu yordamlar orqasidan izzat va xurmatda bo'ladilar.

*Devletli yanını kaşisa, yoksul para verecek sanır (so'zma-so'z) Boy yonini qashlasa, kambag'al pul beradi deb o'ylaydi.* Maqol bir insonnig boyligi va kuchiga ishora qilgan holda tanqis va molyaviy imkoniyatlarni yoritadi. Ushbu maqolda kuchli odam tarafidan kuchsizga doimiy yordam berish nazarda tutilgan.

6) para (pul)-xasislik. Ushbu guruhga kiuvchi maqol manmanlik, ziqnalik va xudbin xatti- harakatlarni ifodalagan holda yordam yoki pul istagan insondan o'z manfaatini ko'zlab uzoqroq munosabatda bo'lishini ochib beradi. Misol tariqasida *Para isteme benden buz gibi soğurum senden (so'zma-so'z) Pul so'rama mendan muz kabi soviyman sendan.* Puli ko'p bo'lgan ziqnalik va xasislikni o'zida jamlagan inson o'zidan yordam so'raganlarga sovuq va istaksiz munosabatda bo'lishi yoritib berilgan.

*Kar kuytuda para pintide eğleşir (so'zma-so'z). Qor toplangan joyda pul ziqnalarda bo'ladi.* Ushbu maqol odatda moddiy boyliklar yoki qadryatlar kutilmagan joylarda va kutilmagan tarzda topilishi, kutilmagan shaxslarda topilishi faqat zarurat bo'lgandagina ishlatilishi haqidagi fikrni beradi.

*Anayı kızdan ayıran para (so'zma-so'z). Onani qizidan ajratgan pul.* Para (pul)so'zi xatto eng yaqin munosabatlarni ham buzishi mumkinligi, shaxsiy manfaat sababli on ava qiz o'rtasidagi rishtalarning uzilishiga olib kelishi nazarda tutilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, "pul" tushunchasi tilshunoslar tarafidan turli asosda tahlilga tortilgan bo'lib, ilmiy ishlarda ushbu tushunchaning semantik xususiyatlari taqdidiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, turk tilshunosligida mazkur tushunchaning frazeologik birliklar tarkibidagi o'rni ko'rib chiqilgan bo'lib, "para" (pul) leksemasi qatnashgan iboralar semantik guruhlantirilgan.





Qayd etish lozimki, mazkur tadqiqotlar orasida “para” (pul) leksemasi qatnashgan turk maqollar tahlilga tortilgan ilmiy ishlar uchramadi. Shu asosda ushbu ilmiy maqolada boshqa xorijiy tillar doirasidagi maqollarda “pul” konsepti tadqiqiga bag'ishlangan ishlar asosida “para” (pul) leksemasi qatnashgan turk maqollari semantik tahlil qilindi.

Semantik metod asosida turk maqollari birlamchi va ikkilamchi xususiyatlarga ajratildi. Birlamchi xususiyatlariga ko'ra ikki ma'noviy guruhlarga ayrildi. Bunda maqollarda aks etgan yaqqol tushuncha asosida ijobiy va salbiy ma'no guruhlari shakllantirildi. Shuningdek, “para” leksemasi qatnashgan turk maqollari ijobiy / salbiy ma'no bilan ichki chuqur ma'nolarga ham egaligi qayd etildi.

Ta'kidlash joziki, turk maqollarini to'plash va saralash jaroyonida “pul” tushunchasi ushbu maqollarda faqatgina “para” (pul) leksemasi bilan emas, bir qator pul birliklarini qo'llangan holda aks etishi ma'lum bo'ldi. Shu asosda kelgusidagi ilmiy ishlarda turk maqollarida qatnashgan pul birliklarini ifodalovchi barcha leksemalarning semantik xususiyatlarini tadqiq qilish rejalashtirildi. Mazkur tahlil keyinchalik turk maqollarida “pul-moddiy boylik” konsepti ustida ish olib borishga yo'l ochadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aksoy Ö.A. Atasözler ve deyimler sözlüğü. 1.Cilt. Atasözleri sözlüğü. İnkılap Kitabevi yayınları. 1984. 219 s.
2. Şahin E. Türkçede Para Birimleriyle İlgili Deyimler Ve Bunların Anlam Bilimsel Karşılaştırılması // Turkish studies Sayı16. 2014. S.954-968
3. Şahin E. Türkiye Türkçesi İle Tatar Türkçesinde Parayla İlgili Deyimler Ve Bunların Anlam Bilimsel Karşılaştırılması // Türk dünyası araştırmaları. 2013. S.261-280
4. Григорьева Т.В. Концепт “Деньги” в национальном языковом сознании восточных славян // Conference Paper Вып.4. 2022. С.51-155
5. Ошева Е.А. Концепт “ Деньги” в англо-американский пословицах и поговорках // Terra Linguae Вып.3. 2013. С.390-392.
6. Ситникова Д.Ю., Заглядкина Т.Я. Образная и ценностная составляющие концепта «деньги» в немецкой и русской лингвокультурах // Terra Linguae Вып. 3. 2017. С.94-97.



## O'LAT KASALLIGI TURLARI, BELGILARI VA DAVOLASH TADBIRLARI

### **Qurbonmurodov Axmadshoh Sobirovich**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2 davolash ishi talabasi*

*Tel: +998946524841*

*Email: qurbonmurodovaxmadshoh@gmail.com*

### **Payg'amova Farangiz Xurshid qizi**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi 1- son davolash talabasi*

*Tel: +998935771507*

*Email: fpaygamova15@gmail.com*

### **Sadullayeva Umida Sobir qizi**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi talabasi*

*Tel: +998880360412*

*Email: sadullayevaumida336@gmail.com*

### **Munisa Norboyeva Orif qizi**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi 1 davolash ishi talabasi*

*Tel: +998777272512*

*Email: moonica.norboyeva@mail.ru*

### **Mukhammadzokirov Soibbek Sanjarbekvich**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2 davolash ishi talabasi*

*Tel: +998900227414*

*Email: muxammadzokirovsoibbek@gmail.com*

**Annotatsiya:** *O'lat kasalligi yana chuma deb ham ataladi. Bu kasallikni asosan bakteriya va viruslar kelatirib chiqaradi. Kasallik judayam xavfli hisoblanib, kasallik aniqlangan zonada karantin e'lon qilinadi.*

**Kalit so'zlari:** *chuma, qora o'lat, yersenia pestes, chov o'lati, bubonik o'lat, sepiemik o'lat, pestis minor*

O'lat — bakterial kasallik bo'lib, Yevropada o'rta asrlarda millionlab odamlar o'limiga sabab bo'lgan. Ko'p tarixiy manbalarda kasallik «Qora o'lat» deb nomlanadi. Vaboning dastlabki pandemiyasi 541 yilda boshlanib, O'rta Yer dengizi atrofida taxminan 100 million odamni o'limiga sabab bo'lgan va 200 yildan ortiq davom etgan.

«Qora o'lat» yoki o'rta asrning pandemiyasi Xitoyda boshlangan va Yevropaga tarqalgan, naitjada butun aholining 60 foizini o'ldirgan. Uchinchi yoki zamonaviy pandemiya 19-asrda Xitoyda boshlangan va butun dunyodagi port shaharlarga tarqalgan. Yaqinda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) 2014 yil noyabr oyida Madagaskarda o'lat kasalligi tarqalishi haqida habar berdi. Kasallik 100 dan ortiq bemorga salbiy ta'sir ko'rsatdi va kamida 40 ta o'limga sabab bo'ldi.

Kemiruvchilar va boshqa ko'plab turdagi hayvonlar o'lat bakteriyasi bilan zararlangan bo'lishi mumkin. Odamlar zararlangan kemiruvchilar qoni bilan ozqilgan burga chaqishi orqali kasallikni yuqtirishadi. Odamlar, shuningdek, kasallangan hayvonlarning suyuqliklari yoki to'qimalari bilan aloqa qilishda ham infeksiyani rivojlantirishi mumkin. O'latli pnevmoniyasi bo'lgan insonlar infeksiyani havoga yo'tal orqali tarqatib, boshqa odamlarga ham yuqtirishlari mumkin.

O'latga sabab bo'ladigan bakteriyalar O'lat tayoqchalari (Yersinia pestis) deb nomlanadi. Tabiiy sharoitda bakteriyalar yovvoyi kemiruvchilarga zarar yetkazadi.